DOI: 10.38095/2181-466X-20231091-137-140 УДК 616.89-008.441.13:616.9

ALKOGOLIZM KASALLIGINING KECHISHIGA COVID-19 KASALLIGIDAN KEYINGI JIGARDAGI KLINIK VA LABORATORIYA O'ZGARISHLARNING TA'SIRI

B. T. Turaev
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Tayanch so'zlar: COVID-19, alkogolizm, jigar patologiyasi, biokimyoviy tahlil.
Ключевые слова: COVID-19, алкоголизм, патология печени, биохимический анализ.
Key words: COVID-19, alcoholism, liver pathology, biochemical analysis.

Bugungi kunga qadar COVID-19 kasalligining turli kasalliklar bilan kombinatsiyasi o'rganilgan bo'lib, alkogolizm bilan kasallangan bemorlarda COVID-19 kasalligining ta'siri haqida ma'lumotlar juda kam. Bizga ma'lumki alkogolizm kasalligida zararlanadigan eng muhum a'zo bu jigardir. COVID-19 kasalligiga chalingan bemorlar orasidan yuqori xavfga kiruvchi maxsus guruh bu turli xildagi jigar patologiyalari mavjud bo'lgan bemorlar hisoblanadi. Koronavirus kasalligining asoratlari olimlar tomonidan hali to'liq o'rganilganligi yo'q. Alkogolizm bilan kasallangan bemorlarda Covid-19 kasalligini o'tkazgandan keyin jigarda paydo bo'luvchi turli xildagi patologiyalarni o'rganish uchun ushbu klinik va laboratoriya natijalarini o'rganib, ushbu o'zgarishlarni alkogolizm kasalligi kechishiga ta'sirini o'rganib chiqdik.

ВЛИЯНИЕ КЛИНИЧЕСКИХ И ЛАБОРАТОРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В ПЕЧЕНИ ПОСЛЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ COVID-19 НА ТЕЧЕНИЕ БОЛЕЗНИ АЛКОГОЛИЗМА

Б. Т. Тураев
Самаркандский государственный медицинский университет, Самарканд, Узбекистан

На сегодняшний день изучено сочетание заболевания COVID-19 с различными заболеваниями, и данных о влиянии заболевания COVID-19 на пациентов с алкоголизмом очень мало. Самый важный орган, который, как мы знаем, поражается при заболевании алкоголизмом, - это печень. Особую группу высокого риска среди пациентов с COVID-19 составляют пациенты с различными патологиями печени. Осложнения коронавирусной инфекции еще не полностью изучены учеными. Мы изучили эти клинические и лабораторные результаты, чтобы выявить различные патологии, возникающие в печени после перенесенного заболевания COVID-19 у пациентов с алкоголизмом, чтобы в дальнейшем исследовать влияние этих изменений на течение болезни алкоголизма.

EFFECTS OF CLINICAL AND LABORATORY CHANGES IN THE LIVER AFTER COVID-19 DISEASE ON THE COURSE OF ALCOHOLISM

B. T. Turaev
Samarkand state medical university, Samarkand, Uzbekistan

Today, the combination of COVID-19 with various diseases has been studied, and there is no enough information on the effects of COVID-19 in patients with alcoholism. It is known that the most important organ affected in alcoholism is the liver. A special group that is at high risk among patients with COVID-19 is considered to be patients with various liver pathologies. The complications of coronavirus disease have not yet been fully studied by scientists. To study the various pathologies that occur in the liver after carrying out Covid-19 in patients with alcoholism, we studied these clinical and laboratory results and the effect of these changes on the course of alcoholism disease.

Muammoning dolzarbligi: SARSCoV-2 koronavirusi tomonidan keltirib chiqaradigan COVID-19 kasalligi 2019-yilning dekabr oyida Xitoyning Uxan shahrida boshlangan pandemiyasi, butun dunyoga tarqaldi va turli xil tibbiy-ijtimoiy muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ldi [1]. Pandemiya davrida ma'lum bo'ldiki, COVID-19 infeksiyasi, o'tkir respirator infeksiyadan tashqari, balki ko'plab a'zolar, jumladan, jigar kabi muhim a'zolarga zarar yetkazadigan kasallikdir [3]. COVID-19 virusemiya natijasida mahalliy va tizimli yallig'lanish jarayonlari, mikro va makrotromboz rivojlanishiga olib keladigan gipoksiya bilan tavsiflanadi, hamda intoksikatsiya, isitma, qon tomir endoteliyasi, o'pka, yurak, buyrak, oshqozon-ichak trakti, markaziy va periferik asab tizimining shikastlanishi bilan klinik jihatdan og'ir o'tadi [2]. Jigar juda ko'plab funktsiyalarga ega bo'lgan muhim organlardan biridir [4]. Jigarning himoya funktsiyasi endogen va ekzogen omillarni zararsizlantirishni o'z ichiga oladi. Jigar hujayralari tananing immunitetini himoya qilish faoliyatida faol ishtirok etadi. Jigarda T va B limfotsitlar mavjud, Kupfer hujayralari ixtisoslashgan jigar makrofaglari bo'lib, virusni ushlash va uning replikatsiyasini buzish uchun zarurdir [6].

Ko'plab tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, SARS-CoV (COVID-19) bilan kasallangan bemorlarda jigar fuksiyasi buzilishlari turli darajada kuzatiladi [5].

COVID-2019 jigarining shikastlanish mexanizmlari hozirgacha to'liq o'rganilmagan. Bu

borada turli xil farazlar mavjud, ular orasida virusni keltirib chiqaradigan ta'sir, tizimli yallig'lanish ("sitokin bo'roni"), gipoksiya, gipovolemiya, shok paytida gipotenziya, dorilarning gepatotoksik tasiri va boshqalar kiradi [7].

Vuxandagi (Xitoy xalq Respublikasi) xitoylik COVID-19 bemorlarida jigar holatini tahlil qiluvchi nashr etilgan maqolalarda ularning 14-53 foizida biokimyoviy ko'rsatkichlarda o'zgarishlar qayd etilganligi ko'rsatilgan [8, 9], 2-11% hollarda infektsiya surunkali jigar kasalliklari fonida rivojlangan [10]. ALT/AST (alanin va aspartik aminotransferaza) faolligining oshishi, qoida tariqasida, normaning yuqori chegarasidan 1,5-2 me'yordan oshmadi va umumiy bilirubin tarkibining biroz oshishi bilan birga keldi [11].

COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning otopsiyasida jigar to'q qizil, kattalashgan; o't pufagi katta. Mikroskopik tekshiruvda mikrovezikulyar steatoz, gepatotsitlarning fokal nekrozi, lobulyar va Portal infiltratlarda neytrofillarning ustunligi, sinusoidlarda mikrotromblar aniqlanadi [12]. Shu bilan birga, tavsiflangan gistologik o'zgarishlar SARS-CoV-2 emas, balki jigarning dori-darmonlarga zarar etkazishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin [13].

COVID-19 pandemiyasi davrida alkogolizm bilan kasallangan va turli xil jigar kasalliklari mavjud bo’lgan bemorlarga yetarli etibor berilmadi [14]. Surunkali jigar kasalliklari dunyoda eng keng tarqalgan kasalliklardan biri bo’lib, bular orasida alkogolizm bilan kasallangan bemorlar yetakchilik qilishadi. Pandemiya davrida ushbu patologiyalar bilan og’rigan bemorlarni samarali kuzatish va davolashni davom ettirish muammolariga keraklicha e’tibor berilmadi [15]. So’ngi adabiyotlarda COVID-19 ning jigar kasalliklarining rivojlanishiga ta’siri haqida ma’lumotlar yetarlicha emas [17]. Biroq, og’ir fibroz va jigar sirrozi bilan og’rigan bemorlar, jigar transplantatsiyasidan bemorlarda COVID-19 kasalligining og’ir kechishi haqida dastlabgi malumotlar mavjud [16].

Jigar juda ko’p funktsiyalarga ega bo’lgan eng muhim organlardan biridir. Jigarning himoya funktsiyasiga endogen va ekzogen omillarni detoksifikatsiya qilishni kiradi [18].

Klinik ma’lumotlarning tahlili shuni ko’rsatadiki, koronavirus infektsiyasi jigar disfunktsiyasi bilan og’ir kasallik bilan kasalxonaga yotqizilgan bemorlarda keng tarqalgandir [19, 20]. Turli ma’lumotlarga ko’ra, bemorlarning 18-50 foizida alanin aminotransferaza (ALT) va asparagin aminotransferaza (AST) yuqori darajalari qayd etilgan. COVID-19 kasalligida jigar disfunktsiyasi ko’pchilik tadqiqotchilar tomonidan yengil patologik holat deb etirof etildi. Ammo ba’zi ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, COVID-19 bilan og’rigan bemorlarning 4-14 foizida jigar bilan birga keladigan kasalliklar mavjud va 15-55% hollarda kasallikning rivojlanishi davomida aminotransferaza darajasi normal bo’lmagan [21]. So’ngi adabiyotlarga qaraganda og’ir COVID-19 kasalligi bilan kasallangan bemorlar ko’pincha jigar disfunktsiyasi kuzatilgan [24]. Ma’lumotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, jigar disfunktsiyasi bilan kasallanish holatlari COVID-19 og’irligiga mutanosib ravishda oshadi. COVID-19 kasalligida alanin aminotransferazaning ko’tarilishi, gipoalbuminemiya va trombotsitopeniya kasallikning noqulay prognoz omili hisoblanadi [22, 23]. COVID-19 bilan og’rigan bemorlarda jigar yo’llarini o’rganish ularning COVID-19 infektsiyasiga yuqori sezuvchanligini va kuchli virus replikatsiyasini saqlab qolishini ko’rsatdi. SARS-CoV-2 virusi xolangiositlardagi o’t kislotalarining turli xil funktsiyalarini buzadi va bu COVID-19 kasalligi bilan kasallangan bemorlarda qon zardobidagi gammaglutamil transferaza (GGT) darajasining oshishi bilan tasdiqlanadi. Og’ir COVID-19 bilan og’rigan bemorlarning ko’pchiligida qon zardobida yallig’lanishga qarshi sitokinlarning normadan yuqori bo’lishi kuzatildi [25]. Yallig’lanishga qarshi sitokinlarning haddan tashqari ko’p ishlab chiqarilishi sitokin bo’roni sifatida tavsiflangan [26].

Alkogolizm bilan kasallangan bemorlar jigar kasalliklari o'lim holatlarining asosiy sabablaridan biridir. Siroz ko'plab mamlakatlarda sog'liq uchun jiddiy patologiya bo'lib, so'nggi paytlarda bu yuk ortdi [28]. Alkogolizm bilan kasallangan bemorlar jigar kasalliklarining oldini olish va davolash bo'yicha samarali choralar mavjud bo'lsa-da, ular butun dunyoda, ayniqsa kam daromadli mamlakatlarda sirozning asosiy sabablari bo'lib qolmoqda [27].

Alkogolizm sababli rivojlanuvchi turli xil surunkali jigar kasalliklari bilan og’rigan bemorlarda COVID-19 virusli infektsiyani yuqtirish xavfi va ularda turli xildagi infeksion kasalliklar og’ir kichadi [29].

Shunday qilib, alkogolizm bilan kasallangan bemorlarda jigar kasalliklari o’rtasida jigar sirozi va gepatoz yetakchi o’rinlarni eganlaydi. Jigar sirrozi rivojlanishidagi asosiy patogenetik omillar parenxima nekrozi, gepatotsitlarning yangilanishi, progressiv fibroz va jigar tomirlaridagi

o'zgarishlardir. Gepatotsitlar nekrozi bilan hujayralar yangilanishini va fibroz jarayonini rag'batlantiradigan moddalar (sitokinlar, ximokinlar va o'sish omillari) ajralib chiqadi [30].

Alkogolizm bilan kasallangan bemorlarda COVID-19 kasalligini boshdan kechirgandan keyin ALT, AST, umumiy bilirubin va boshqa jigar funktsiyasi ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshganligi va tiklanish jarayonida jigar funktsiyalari ko'rsatkichlari asta-sekin normal holatga qaytishi mumkinligi aniqlandi [31]. Alkogolizm natijasida jigarning og'ir shikastlanishlari mavjud bo'lgan bemorlarga odatda gepatoprotektor dorilar buyuriladi. Bundan tashqari, COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda jigar disfunktsiyasi koagulyatsiya va fibrinolizning faollashishi, nisbatan past trombotsitlar soni, granulotsitlar soni va neytrofil-limfotsitlar nisbati va yuqori ferritin darajasi bilan bog'liq [32].

Xulosa. Alkogolizm bilan kasallangan turli xil surunkali jigar kasalliklari mavjud bemorlarda COVID-19 kasalligini boshdan kechirgandan keyin shifokorlarning alohida e'tiborini talab qiladi ushbu bemorlarda jigar fermenti darajasi ko'tariladi, boshqa tadqiqotlar surunkali jigar kasalligi og'ir infektsiya va o'limning oshishi uchun xavf omili ekanligini ko'rsatdi. Alkogolizm tashhisi bilan ro'yxatda turuvchi va COVID-19 kasalligini boshidan o'tkazgan bemorlarda gepatobiliar tizimda sitolitik, xolestatik sindromi, jigar sintez qiluvchi oqsil funktsiyasining pasayishi, shuningdek jigar hajmining kattalashuvi, portal va taloq venalarining diametrlari, jigar parenximasining qattiqligining oshishi bilan tavsiflangan tarkibiy va funktsional o'zgarishlar paydo bo'lishi aniqlandi. Alkogolizm kasalligiga chalingan va turli xil jigar patologiyasi mavjud bo'lgan bemorlar COVID-19 kasalligini o'tkazgandan keyin, alkogolizm kasalligining kechishi odatdagidan farq qiladi va alkogolizm kasalligini davolashda ushu ko'rsatgichlar muhum ahamiyat kasb etadi.

Alkogolizm kasalligini davolashda ushbu o'zgarishlarga etibor berilmasa davolash samaradorligi yetarli darajada bo'lmaydi va bemorning umumiy somatik holatida turli xil o'zgarishlar yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allambergenov A. J. et al. Postcovid syndrome and its neuropsychiatric consequences after covid-19 in patients with alcoholism //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – T. 11. – C. 42-46.
2. Ochilov U. U., Turaev B. T., Zhumageldiev N. N. Features of the formation and course of alcoholism in persons with character accentuations and personality disorders //Bulletin of Science and Education. – 2020. – №. 10-4. – C. 88.
3. Temirpulatovich T. B. et al. Clinical Manifestations of Suicidal Behaviors as a Result of Depressive Disorders During Adolescence //Eurasian Medical Research Periodical. – 2022. – T. 8. – C. 55-58.
4. Temirpulatovich T. B. Sexual behavioral disorders after the covid-19 pandemic in patients with alcoholism // World Bulletin of Public Health. – 2022. – T. 10. – C. 207-209.
5. Temirpulatovich T. B., Hamidullayevna X. D. Neuropsychiatric disorders that develop in a complication of covid-19 to alcoholism //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – T. 11. – C. 47-51.
6. Temirpulatovich T. B., Murodullayevich K. R., Uzokboyevich T. A. The Interrelationship of The Covid-19 Pandemic with Alcohol Abuse //Eurasian Medical Research Periodical. – 2022. – T. 8. – C. 137-139.
7. Temirpulotovich T. B. et al. The Impact Of Medical And Social Factors On Alcohol Abuse In Patients With Alcoholism During The Covid-19 Pandemic //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 8195-8200.
8. Temirpulatovich T. B., Sabrievna V. A. Effects of the Covid-19 Pandemic on the Frequency of Alcohol Abuse and Clinical and Psychopathological Features //Eurasian Medical Research Periodical. – 2022. – T. 8. – C. 68-71.
9. Turaev B. the course of the disease during the covid-19 pandemic in patients with alcoholism //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D8. – C. 130-134.
10. Turaev B., Velilyaeva A. Formation and course of alcoholism in young women with alcoholic psychosis //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 6. – C. 226-232.
11. Usmanovich O. U. et al. Detection of adrenaline and stress conditions in patients using psychoactive substances with hiv infection //CUTTING EDGESCIENCE. – 2020. – C. 42.
12. Очилов У. У. и др. Оптимизация профилактики когнитивных и депрессивных расстройств при алкоголизме //Вестник науки и образования. – 2022. – №. 1-1 (121). – С. 109-113.
13. Очилов У. У. и др. Проблемы современной науки и образования //проблемы современной науки и образования Учредители: Олимп. – №. 1. – С. 64-67.
14. Очилов У. У., Тураев Б. Т., Жумагелдиев Н. Н. Особенности формирования и течения алкоголизма у лиц с акцентуациями характера и личностными расстройствами //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 10-4

(88). – С. 101-103.
15. Очилов У. У., Тураев Б. Т., Хушвактова Д. Х. Распространенность когнитивных нарушений у пациентов с алкоголизмом //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 17-2 (95). – С. 104-106.
16. Очилов У., Тураев Б., Алкаров Р. Клинические особенности депрессивных расстройств у подростков // Журнал вестник врача. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 75-77.
17. Тураев Б. и др. Алкоголизм билан касалланган беморларда депрессив бузилишларнинг клиник ва психопатологик хусусиятларини ўрганиш //Журнал вестник врача. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 92-94.
18. Тураев Б. Т. и др. Covid-19 pandemiyasi vaqtida spirtli ichimliklarni iste'mol qiluvchi shaxslarda depressiv buzilishlarning tarqalishi //журнал биомедицины и практики. – 2022. – Т. 7. – №. 1.
19. Тураев Б. Т. и др. Диагностика и лечение коморбидности алкоголизма и депрессивных расстройств // Вестник науки и образования. – 2021. – №. 4-2 (107). – С. 26-30.
20. Тураев Б. Т. Личностные нозогенные реакции больных с дерматологическими заболеваниями // Актуальные проблемы нейробиологии психических и аддиктивных расстройств. Томск. – 2020. – С. 157-159.
21. Тураев Б. Т., Жабборов Х. Х., Жумагелдиев Н. Н. Гендерные различия депрессивной симптоматики у больных параноидной шизофренией //VOLGAMEDSCIENCE. – 2021. – С. 459-460.
22. Тураев Б. Т., Икромова П. Х., Жабборов Х. Х. Тревожно-депрессивные расстройства в период беременности //VOLGAMEDSCIENCE. – 2021. – С. 460-461.
23. Тураев Б. Т., Очилов У. У., Алкаров Р. Б. Socio-demographic characteristics of somatized depression //Новый день в медицине. – 2020. – №. 2. – С. 231-233.
24. Тураев Б. Т., Очилов У. У., Икромова П. Х. Частота и структура неврологических нарушений у больных подросткового возраста с психическими расстройствами //VOLGAMEDSCIENCE. – 2021. – С. 462-463.
25. Тураев Б. Т., Очилов У. У., Кубаев Р. М. Распределение тревоги и депрессии при аффективных расстройствах соматизированной депрессии //Medicus. – 2020. – №. 3. – С. 58-60.
26. Тураев Б. Т., Очилов У. У., Хаятов Р. Б. Клинические особенности премобидного течения депрессивных расстройств и алкогольной зависимости //# Эндогенные психические расстройства. – 2020. – С. 64-68.
27. Тураев Б. Т., Хаятов Р. Б. Апатия в структуре депрессии позднего возраста //Молодежь и медицинская наука в XXI веке. – 2019. – С. 293-293.
28. Тураев Б. Т., Хаятов Р. Б. Особенности электроэнцефалографических показателей у больных алкогольной зависимостью //Актуальные проблемы психиатрии и наркологии в современных условиях. – 2019. – С. 150 -151.
29. Тураев Б. Т., Хаятов Р. Б. Преморбидные особенности личности и суицидальное поведение больных алкоголизмом позднего возраста //Актуальные проблемы психиатрии и наркологии в современных условиях. – 2019. – С. 151-153.
30. Тураев Б. Т., Хаятов Р. Б. Различия в поведенческих нарушениях и злоупотребления спиртными напитками в катамнестическом исследовании лиц с расстройствами зрелой личности //Антология российской психотерапии и психологии. – 2019. – С. 171-171.
31. Тураев Б., Хаятов Р. Суицидальные намерения у лиц с синдромом алкогольной зависимости при наличии депрессивных расстройств //Журнал вестник врача. – 2019. – Т. 1. – №. 2. – С. 115-117.
32. Тураев, Б., У. Очилов, Р. Алкаров, и А. Тургунбаев. «Изучение клинико-психопатологических особенностей депрессивных расстройств больных с алкоголизмом». Журнал вестник врача, т. 1, вып. 2, март 2022 г., сс. 92-94, doi:10.38095/2181-466X-2020942-91-93.
33. Хаятов Р. Б. и др. Аффективные расстройства у больных алкогольной зависимостью как фактор риска развития суицидального поведения //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 11 (52). – С. 96-98.